

**Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan
2025-yilda amalga oshirilgan ishlar va 2026-yildagi ustuvor vazifalar
ijrosi to'g'risida**

TAHLILIY MA'LUMOT

I. Geologiya sohasi bo'yicha.

2025-yilgi mineral xomashyo bazasini rivojlantirish davlat dasturi doirasida jami **289 ta** geologik loyiha (*shundan 156 ta byudjet loyihalari*) bo'yicha geologiya-qidiruv ishlariga jami **2,9 trln so'm** mablag' sarflangan bo'lib, jumladan **820 mlrd so'm** (*rejaga nisbatan 100%*) byudjet mablag'lari, **2,1 trln so'm (100%)** "Olmaliq KMK" AJ, "Navoiy KMK" AJ va "Navoiyuran" DK mablag'lari o'zlashtirildi.

Shuningdek, tizim tashkilotlarini modernizatsiya qilishga **35,2 mlrd so'm** mablag' yo'naltirildi.

Davlat dasturi doirasida hamda barcha manbalar hisobiga **3 031 ming pog m (108,3%)** burg'ilash ishlari, **325 ming kub m (106,6%)** yer usti tog'-kon ishlari, **6,7 ming pog m (102,9%)** yer osti tog'-kon ishlari (*lahmlar, shurflar*), **6 500 pog km 2D (100%)** seysmik-qidiruv va **1 700 kv km 3D (100%)** seysmik-qidiruv ish hajmlari amalga oshirildi.

Natijada zaxiralar bo'yicha **oltin** yillik rejaga ko'ra **125,9%**, **kumush** – **279,5%**, **mis** – **165,1%**, **uran** – **398,4%**, **qo'rg'oshin** – **105,5%**, **rux** – **135,8%**, **volfram** – **118,8%**, **yer osti suvlari** – **102,9%**, **ko'mir** – **105%** miqdorida ko'paytirildi.

Chuqur izlov burg'ilash uchun neft va gazga istiqbolli **19 ta (100%)** yangi istiqbolli maydonlar aniqlandi hamda **uglevodorod resurslari 192,1%** miqdorida o'stirildi.

Natijada, xorijiy va mahalliy kompaniyalar tomonidan Buxoro-Xiva hududida **Cho'lnuri, Yangi Chuqurko'l, Zafarobod, Karaxodja, Ambartepa, To'rtsari** (*ter.yura*), Ustyurt regionida **Mo'ynoq, Orolboy, Aydinko'l**, Farg'ona regionida **Zambuloq** uglevodorod konlari aniqlandi.

Joriy yilda Davlat komissiyasi tomonidan **4 ta** geologiya-qidiruv ishlarini tartibga soluvchi normativ hujjatlari hamda **50 ta foydali qazilmalari**, jumladan **7 ta oltin koni, 1 ta kumush koni, 6 ta uran koni, 2 ta ko'mir koni, 13 ta yer osti suvlari koni, 4 ta uglevodorod koni**, va **17 ta** har xil turdagi **noruda foydali qazilmalar** zaxiralari tasdiqlandi.

II. Tog'-kon sanoati korxonalari bo'yicha.

Tizimdagi korxonalarda **mahsulot ishlab chiqarish** hajmi **214,2 trln so'mni** tashkil etdi (**102,6%**).

Xususan, **oltin, kumush** mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'rsatkichlari rejadan ortiq (**100,1%**), **mis, uran konsentrati** hamda **ko'mir** mahsulotlari reja ko'rsatkichlari (**100%**) to'liq bajarildi.

Mahsulotlar va xizmatlar eksporti jami **1,7 mlrd dollar** (**106,6%**), shu jumladan, **rangli metallar** sohasida **510,4 mln dollar**, **qora metallurgiya** sohasida **62,8 mln dollar** va **uran** sohasida **1,1 mlrd dollar** tashkil etdi.

Mahalliyashtirish dasturiga muvofiq tizimdagi korxonalar tomonidan **7 trln so'mlik** (**102,4%**), shu jumladan, "**Navoiy KMK**" AJ – **1,4 trln so'm**, "**Olmalik KMK**" AJ – **1,3 trln so'm**, "**O'zmetkombinat**" AJ – **888,2 mlrd so'm**, "**Navoiyuran**" DK – **121,9 mlrd so'm**, "**O'zbekko'mir**" AJ – **6,1 mlrd so'm**, "**Toshkent MZ**" MCHJ QK – **3 trln so'm** hamda "**O'zbekiston TMK**" AJ – **297,7 mlrd so'mlik** uskuna, mashina, ehtiyot va butlovchi qismlar ishlab chiqarilib, import o'rnini bosish samaradorligi **586,6 mln dollar**ni tashkil etdi.

Sanoat kooperatsiyasi orqali kombinatlar tomonidan **14,5 trln so'mlik** (**109,4%**) **mahalliy korxonalar** tomonidan ishlab chiqarilayotgan turli rusumdagi asbob-uskunalar, butlovchi va ehtiyot qismlar hamda import o'rnini bosuvchi yangi mahsulotlarni xarid qilish bo'yicha hamkorlik shartnomalari imzolangan.

III. Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish samaradorligi.

2025 yil uchun tasdiqlangan investitsiya dasturiga muvofiq, Gyeologiya sohasi bo'yicha **37 ta** loyiha doirasida **1 041,2 mln dollar** miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi.

Shuningdek, umumiy qiymati **100 mln dollarga** teng bo'lgan **2 ta** investitsiya loyihasi muvaffaqiyatli ishga tushirildi.

Ushbu loyihalarning amalga oshirilishi natijasida **705 ta** yangi ish o'rinlari yaratilib, aholi bandligini ta'minlash, ayniqsa hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga salmoqli hissa qo'shildi.

IV. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo'yicha.

2025 yilning yanvar-dekabr oylarida Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligiga **to'g'ridan-to'g'ri jami 594 ta** murojaat kelib tushgan, shundan **121 tasi** yozma, **289 tasi** og'zaki va **184 tasi** elektron shaklda.

Ushbu murojaatlarni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra, ularning **485 tasi** bo'yicha tegishli chora ko'rilgan, **109 tasi**ga tushuntirish berilgan.

Shu bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi orqali jami **132 ta** murojaat kelib tushdi. Shundan, **27 ta** sigat tushuntirish berilgan, **101 ta** sigat qanoatlantirilgan, **3 ta** sigat tugatilgan.

Qolaversa, **“Tadbirkorlar virtual ofisi”** axborot portali orqali kelib tushgan **12 ta** murojaatning ijrosi ta'minlangan.

“Eksportchilar markazi” avtomatlashtirilgan tizimi orqali **10 ta** murojaat kelib tushgan hamda ijrosi ta'minlangan.

“Tadbirkorlar bilan ochiq muloqot” elektron platformasi orqali **66 ta** murojaat kelib tushgan va ijrosi ta'minlanib tizimga biriktirilgan.

“Hokim murojaati” moduli raqamli idora yagona platformasi orqali **4 ta** murojaat kelib tushgan va ijrosi ta'minlangan.

V. Ijro intizomi bo'yicha.

2025 yilning yanvar-dekabr oylarida “Edo.ijro.uz” (ijro.gov.uz) elektron tizimida vazirlikka O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlarida jami **87 ta** hujjatda **718 ta** topshiriq yuklatilgan bo'lib, shundan **510 ta** topshiriqda vazirlik asosiy ijrochi etib belgilangan. Mazkur topshiriqlarning barchasi o'z muddatida bajarilib, nazoratdan yechilgan.

Vazirlar Mahkamasi hujjatlarida vazirlikka **273 ta** hujjatda **454 ta** topshiriqlar belgilangan bo'lib, ushbu topshiriqlarning barchasi o'z muddatida bajarilib, nazoratdan yechilgan.

Hukumat komissiyasi bayonlarida jami **93 ta** hujjatda **415 ta** topshiriqlar belgilangan bo'lib, ushbu topshiriqlarning barchasi o'z muddatida bajarilib, nazoratdan yechilgan.

VI. Yoshlarga oid davlat siyosatini yuritish bo'yicha.

Vazirlik tizimidagi oliygohlarda bilim olayotgan, ilmiy tadqiqot institutlari hamda korxonalarda faoliyat olib borayotgan yoshlar soni **32 ming nafardan** ortiqni tashkil etadi.

Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha Tog'-kon sanoati va geologiya vaziri **B.Islamovga** Toshkent shahrining Bektemir tumanidan alohida ishlash talab etiladigan, **“og'ir”** toifadagi jami **19 nafar** yoshlar biriktirildi. **Biriktirilgan yoshlar** “Iyk ota” MFYdan **7 nafar**, “Gulbog'” va “Mirishkor” MFYlardan **5 nafardan**, hamda “Iqbol” MFYdan **2 nafar**ni tashkil etadi.

Joriy yilning **8-may** kuni Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligida vazirlik mutasaddilari tomonidan yoshlar bilan uchrashuv tashkil etildi.

Bugungi kunga qadar **2 nafar** yoshlar doimiy ish bilan ta'minlandi, **1 nafar** yoshlarning sog'lig'ini tiklash xarajatlari qoplab berildi, **4 nafar** yoshlarning o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun uskunalar bilan ta'minlanib, **1 nafar**

yoshlarning nodavlat ta'lim tashkilotlarida bilim olishlariga imkoniyatlar yaratib berildi.

2025 yilning **24-mart** kuni vazirlikda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi **Yoshlar parlamenti a'zolari** bilan vazirlik va uning tizimidagi korxonalarda **yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda** qilingan ishlar muhokamasi yuzasidan uchrashuv o'tkazildi.

Shuningdek, **2025 yil**ning **19-iyul** kuni Geologiya fanlari universiteti majlislar zalida o'tkazilgan **"Vazir va yoshlar"** uchrashuvida soha oldida turgan ustuvor vazifalar va rejalar haqida batafsil ma'lumot berildi, iqtidorli yosh kadrlar salohiyati talab etiladigan yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, kundalik ish faoliyatida **ilg'or texnologiyalar** va **sun'iy intellekt**dan samarali foydalanish zarurligi ta'kidlandi.

Shu bilan birga, **vazirlik tizimi ostidagi korxonalarda** (*"Navoiy KMK" AJ, "Navoiyuran" DK, "O'zmetkombinat" AJ, "O'zbekko'mir" AJ, "Sharg'un ko'mir" AJ, "O'zbekgeofizika" AJ, "O'zbekgidrogeologiya" DM "Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti" DM, "Gidrogeologiya va injenerlik geologiyasi instituti" DM, "Geologiya va geofizika instituti" DM, "O'zbek geologiya qidiruv" AJ hududiy ekspeditsiyalari, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti*) **"Rahbar va yoshlar"** uchrashuvlari tashkil etildi.

Vazirlik tomonidan o'tkazilgan "Kon-geologiya sohasida yilning eng yaxshi ratsionalizator g'oyalari" tanlovida *"Yilning eng yaxshi ratsionalizatori", "Yilning eng yaxshi innovatsion yondashuv taklifi", "Yilning eng yaxshi amaliy ratsionalizatorlik taklifi", "Yilning eng yosh ratsionalizatori"* nominatsiyalari g'oliblari kon-geologiya sohasida ilg'or ratsionalizatorlik g'oyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishda, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda innovatsion tashabbuslari bilan faol ishtirok etgani uchun munosib ravishda e'tirof etildilar.

Joriy yilning **29-sentyabr** kunlari vazir o'rinbosari U.Yusupov boshchiligidan o'tkazilgan **"Rahbar va yoshlar"** uchrashuvida yosh mutaxassislarni qiziqtirgan savollarga javob berildi, ularning taklif va tashabbuslari tinglandi. Bildirilgan tashabbus va takliflarni o'rganish hamda ularni kelgusida birgalikda amalga oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etish belgilab olindi.

O'tkazilgan uchrashuvlarda tizimdagi korxonalarda faoliyat olib borayotgan **2 800 nafardan ortiq yosh** xodimlar ishtirok etishdi.

Joriy yilning **5 noyabr** kuni tizimdagi yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish va sog'lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida **"Zakovat"** arenada tog'-kon va geologiya sohasi bilimdonlari bellashdi.

Musobaqada **22 ta** korxona va tashkilotdan **52 ta** jamoa ishtirok etdi. Yakunda faxrli o'rinlarni "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" va

“O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatlari jamoalari egalladi. Asosiy g‘olib – Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining jamoasi bo‘lib, ularga diplom, sovg‘alar hamda “Zakovat” kubogi topshirildi.

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan 2026-yil uchun ustuvor vazifalar.

Umumiy hisobda **2026-yilda 275 ta** geologik loyiha bo‘yicha (*davlat dasturi doirasida 112 ta, boshqa manbalar hisobidan 163 ta*) geologiya-qidiruv ishlariga jami **750 mlrd so‘m** byudjet mablag‘lari, **2,5 trln so‘m** boshqa manbalar hisobdan mablag‘lar yo‘naltirilishi rejalashtirilmoqda.

2026 yilda tizimdagi korxonalarda **mahsulot ishlab chiqarish** hajmi **220,6 trln so‘m**ga yetkaziladi va o‘shish sur‘ati **103 foiz**ga ta‘minlanadi. Shundan, **qimmatbaho va rangli metallar** sohasida **191,6 trln so‘m**, **qora metallurgiya** sohasida **11 trln so‘m**, **uran** sohasida **14,7 trln so‘m**, **ko‘mir** sanoatida **2,1 trln so‘m**, **noyob metallar** sohasida **1,2 trln so‘m** mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Mahsulot va xizmatlar eksport hajmini jami **1 863,5 mln dollar**ga yetkaziladi (*o‘shish sur‘ati 108,8%*). Shu jumladan, **rangli metallar** sohasida **594,9 mln dollar**, **qora metallurgiya** sohasida **12,7 mln dollar**, **uran** sohasida **1 200 mln dollar** va **noyob metallar** sohasida **55,9 mln dollar** mahsulotlar eksport qilinadi.


Mahalliy lashtirish dasturiga muvofiq vazirlik tizimidagi korxonalar tomonidan **2026-yilda 7,5 trln so‘m**lik (*o‘shish sur‘ati 106,8%*) uskuna, mashina, ehtiyot va butlovchi qismlar ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

Sanoat kooperatsiyasi orqali kombinatlar tomonidan **2026-yilda 12,4 trln so‘m**lik mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan turli rusumdagi asbob-uskunalar, butlovchi va ehtiyot qismlar hamda import o‘rnini bosuvchi yangi mahsulotlarni xarid qilish bo‘yicha hamkorlik shartnomalari imzolangan.

Investitsiya dasturi doirasida **2026 yilda 81 ta** loyiha doirasida **1,8 mlrd dollar** investitsiyalar o‘zlashtiriladi.

Bunda, **1,5 mlrd dollar** to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar tashkil etdi.

2025-yil – Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish dasturi bo'yicha geologiya-qidiruv ishlari




Tizim tashkilotlarini modernizatsiya qilishga budget mablag'lari hisobidan **4,1 mlrd so'm**


2025-yil – Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish dasturi bo'yicha geologiya-qidiruv ishlari




2025-yil – Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish dasturi bo'yicha zaxiralar ko'payishi



2025-yil – Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish dasturi bo'yicha prognoz resurslari o'stirilishi




2025-yil – Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish dasturi bo'yicha neft va gaz foydali qazilmalari



2025-yilda Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish dasturi bo'yicha yer osti suvlari




2025-yil – Tizimosti kon-metallurgiya korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmi



2025-yil – Tarmoq korxonalari tomonidan import hajmini kamaytirish bo'yicha mahalliyashtirish dasturi doirasida

Mahalliyashtirish dasturiga muvofiq tizimdagi korxonalar tomonidan **7 trln so'mlik** uskuna, mashina, ehtiyot va butlovchi qismlar ishlab chiqarildi (**rejaga nisbatan 102,4 %**)



**Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda tarmoq korxonalari
tomonidan 2025-yilda investitsiya dasturiga muvofiq
o'zlashtirilgan investitsiyalar**

